



DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA DIDAKTIK O'YIN ORQALI YANGI BILIM VA KO'NIKMALAR HOSIL QILISH

Normurodova Nodira Maxmudovna¹, Usarova Yulduzxon Nosirjon qizi²

¹ Yashnobod tumpni 237-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

² 237-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214021>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 17th October 2022

KEY WORDS

didaktik o'yinlar, noan'anaviy, interfaol o'yinlar, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, faollik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlarni tashkillashtirish va ushbu o'yinlarning bolalar yangi bilim, ko'nikma, malaka olishlaridagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

KIRISH

Didaktik o'yinlar bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsi ning hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

ASOSIY QISM

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, guvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi [1].

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.



O'yinda aks ettirayotgan narsani bili bolishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini. bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ijodiy o'yni tor didaktik maqsadlarga bo'ysindirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib

borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyaiga ega bo'lib bolaning umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hakozolar [2].

O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. "Xaltachada nima bor?" o'yinning maqsadi o'yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o'yinchoqlar to'g'risida bilimlarni mustaxkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. "Bu nima?" o'yinida bolalar qo'g'irchoqqa har xil narsalar va ularni ishlatilishi to'g'risida gapirib beradilar. Bunday o'yin guruhda, bog'cha maydonchasida, uxlash xonasida o'tkazilishi mumkin.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga keraqligi bilan tanishtiribgina qomay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta kichikligi, fazoda tutgan o'rni xaqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy begisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shakliningi aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega.

Bolalarning rang xaqidagi tushunchalarini mustaxkamlash va aniqlash uchun quyidagi o'yinlar o'tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to'plash, "Dumaloqni dumalatish", xalqachalarni ipga o'tkazish, "Shu rangdagi dumaloqni dumalatish", "Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor", "Kim mana bu rangdagi xaltachani topa oladi" va h.k.

Qo'g'irchoq bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog'chasida didaktik jixozlangan o'yinchoq bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq jixozlariga kiyim, ichki kiyim, poyafzal, idish-tovoq, mebel o'yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "Qo'g'irchoqni kiyintirarniz", "Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz", "Qo'g'irchoqni mexmon qilamiz". "Qo'g'irchoqlar bayrami", "Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni", "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" [3].

Katta va tayorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jixatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkaza qolmay, so'zli



didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'ynlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun keraqligi va xakozolar to'g'risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustaxkamlanadi. Bunday o'yinlarga quydagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Nima nimadan yasalgan?", "Guruh xonasiga sayohat", "Ovoziga qarab top" va boshqalar [4].

Xullas, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim berishda didaktik loyihalashtirish keng qamrovli yaxlit muammo va uni o'rganish, amaliyotga tatbiq qilish lozim. Chunki, yoshlar uchun mo'ljallangan mashg'ulotlar bolalarda jarayonga qiziqish uyg'otishi hamda sog'lom shakillanishi uchun zamin bo'lishi lozim.

References:

1. Olimov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
2. Yusupov T.B. O'zbek adabiyotining ingliz tilidagi tarjimalarining lingvokognitiv tadqiqi. So'z san'ati xalqaro jurnali. 3 son, 3 jild. B.102-105.
3. Yusupov O.N. O'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axboratlari. 3 jild, 19 son, - TDPU, 2019. B.146-150.
4. Nazarov A.F. Analiz problemy stilya v xudojestvennom perevode. The Way of Science, 94. 2014.